

SAYLOV TIZIMINI TASHKIL ETISH: O'ZBEKISTONNING SAYLOV HUQUQIDAGI MUHIM TENDENSIYALARI

Inoqova Oysha Suyun qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15207649>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasidagi saylov tizimini tahlil qiladi, uning huquqiy asoslari, amaliy jarayonlari, ijobiy tomonlari va muammolarini yoritadi. Tadqiqotda saylov qonunlarining rivojlanishi, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, saylov shaffofligi va raqobatbardoshligi masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, prezidentlik, parlament va mahalliy saylovlar tizimlari, shu jumladan ovoz berish usullari, saylov komissiyalarining faoliyati va saylov natijalariga ishonchlilik darajasi baholanadi. Maqolada O'zbekiston saylov tizimi AQSh, Germaniya kabi rivojlangan demokratiya davlatlarning saylov tizimlari bilan solishtiriladi. Xalqaro tajriba asosida saylov qonunchiligini takomillashtirish, saylov shaffofligini oshirish va fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad saylov jarayonini huquqiy asoslarini takomillashtirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun g'oyalar berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida milliy qonunchilikda qo'llanilayotgan saylov tashkil etish usuli, saylov va uni tashkil etish to'g'risidagi qarashlar, amaliyot va qonunchilik hujjatlari: tahlil, funksional, tuzilmaviy, qiyosiy va boshqa usullar vositasida tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: saylov, yalpi ovoz, referendum, konstitutsiya, demokratiya, partiyalar.

ОРГАНИЗАЦИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ: ВАЖНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНОМ ПРАВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Эта статья анализирует избирательную систему Республики Узбекистан, её правовые основы, практические процессы, положительные стороны и проблемы. В исследовании рассматриваются вопросы развития избирательных законов, усиления роли политических партий, прозрачности и конкурентоспособности выборов. Также оцениваются системы президентских, парламентских и местных выборов, включая методы голосования, деятельность избирательных комиссий и доверие к результатам выборов. В статье проводится сравнение избирательной системы Узбекистана с избирательными системами таких развившихся демократических стран, как США, Германия. На основе международного опыта разрабатываются практические

предложения по совершенствованию избирательного законодательства, повышению прозрачности выборов и укреплению участия гражданского общества. Основной целью исследования является предложение идей для совершенствования правовых основ избирательного процесса и устранения существующих недостатков. В процессе исследования были использованы методы анализа, функциональный, структурный, сравнительный и другие подходы для изучения практики и законодательства, касающегося организации выборов и их проведения в национальном законодательстве.

Ключевые слова: выборы, всенародное голосование, референдум, конституция, демократия, партии.

ORGANIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM: IMPORTANT TRENDS IN UZBEKISTAN'S ELECTORAL LAW

Abstract. *This article analyzes the electoral system of the Republic of Uzbekistan, its legal foundations, practical processes, positive aspects, and challenges. The research addresses the development of electoral laws, the enhancement of political parties' roles, and issues related to election transparency and competitiveness. It also evaluates the presidential, parliamentary, and local election systems, including voting methods, the activities of electoral commissions, and the reliability of election results. The article compares Uzbekistan's electoral system with the systems of developed democracies such as the United States, Germany. Based on international experience, practical proposals are developed to improve electoral legislation, increase election transparency, and strengthen the participation of civil society. The main goal of the research is to provide ideas for improving the legal foundations of the electoral process and eliminating existing shortcomings. The research process involved methods such as analysis, functional, structural, comparative, and other approaches to examine the practices and legal documents related to the organization and conduct of elections in the national legislation.*

Keywords: *election, popular vote, referendum, constitution, democracy, parties.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda demokratik institutlarning rivojlanishi davlatlar ichki siyosatining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylangan. Bunda saylov tizimini shaffof, adolatli va samarali bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Saylovlar – fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlovchi siyosiy huquqi sanaladi. Konstitutsiyamizda ham Saylov tizimi va uni tartibga solish bo'yicha alohida bob ajratilgan. Bejiz, saylov huquqi sohasidagi tamoyillar va standartlar

1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks etmagan. Qolaversa, hozirda erkin saylov tashkil qilinishi va o'tkazilishini ta'minlash sohasida 20 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar amal qiladi.¹ O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon saylov mexanizmlarini demokratlashtirish, fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirish va ovoz berish jarayonlarini ochiq qilish yo'lida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonni tartibga solish, yanada rivojlantirish va shaffoflikni ta'minlash uchun 2019-yil 25-iyun kunida "O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi" qabul qilindi. Bu hujjatda barcha saylov jarayonidagi chora-tadbirlar yoritilgan bo'lib, noaniqlik va mavhumliklarga chek qo'yuvchi vositaga aylandi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan Prezidentlik va Parlament saylovlari mamlakatimizda saylov jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilishini ko'rsatdi. Yurtimizda saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari etib umumiylik, tenglik va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi belgilandi.² Aynan shu prinsiplardan kelib chiqib saylovlar ochiq va oshkora o'tkaziladi. Biroq, saylov tizimining ba'zi jihatlari, masalan:

- Saylov qonunchiligida noaniqliklar va qonun hujjatlarining amaliyot bilan har doim ham mos kelmasligi;
- Ovoz berish va hisoblash bosqichlarida shaffoflikning yetarli emasligi;
- Fuqarolarning saylovlarga ishtirok etish darajasining pastligi;
- Partiyalararo raqobatning sustligi va muxolifatning cheklangan imkoniyatlari

kabi muammolar hali ham mavjud. Shu sababli, O'zbekistonda saylov tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va fuqarolarning ishonchini oshirish uchun chuqur tahliliy ishlar olib borish zarur.

Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasining saylov tizimini tahlil qilish, uning amaldagi qonun hujjatlarini va amaliyotini xalqaro demokratik standartlar nuqtai nazaridan baholash, shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Dastavval, Saylov qonunchiligining huquqiy tahlili ya'ni O'zbekiston Konstitutsiyasi, Saylov kodeksi va boshqa normativ hujjatlarining zamonaviy talablarga mosligini tahlil qilishdan boshlaymiz. Yurtimizning saylov qonunchiligi zamonaviy talablar va xalqaro standartlar bilan moslashgan bo'lishiga qaramay, hali ham ba'zi sohalarda yangilanishga muhtoj. Saylov

¹ [Fuqarolarning saylov huquqi va kafolatlari](#)

² O'zbekiston respublikasi saylov kodeksi

jarayonlari hali hanuz qog'ozga yozib ovoz berish usulida o'tkaziladi va bu moliyaviy xarajatlar va tabiiy resurslarga ziyon yetkazishga olib kelishini yaqqol isbot deyishimiz mumkin. Yana bir kamchiliklardan biri saylov jarayonlarining amaliy tahlili – ovoz berish, hisoblash, qayta sanash bosqichlaridagi muammolar deyish mumkin, chunki bu bosqichni insonlar ya'ni vakolatli shaxslar amalga oshiradi va hech qanday texnika ishlatilmaydi. Inson omili yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar, uzoq vaqt davomida saylovdan keyingi masalalar bilan band bo'lish masalalari e'tibordan chetda qolgan.

Tadqiqot natijalari

Saylov o'tkazish demokratik davlat barpo etilganidan buyon mavjud bo'lib, vaqt o'tgan sari bu jarayon rivojlantirilib borilmoqda.

Qayd etish lozimki, Konstitutsiyamizning 128-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi³, deb belgilangan. Fuqarolarning bu huquqini to'la ro'yobga chiqarish uchun so'nggi yillarda saylovga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada xorijda vaqtincha yashab turgan mehnat muhojirlari, talabalar va boshqa yurtdoshlarimiz saylovda ishtirok etishi uchun keng sharoitlar yaratildi. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarga ovoz berish imkoniyati yaratildi. Aytish joizki, ushbu normalar ba'zi demokratik davlatlar qonunchiligida ham mavjud emas. Quyida O'zbekiston respublikasi saylov tizimi va boshqa rivojlangan davlatlarning saylov tizimi to'g'risida qiyoslama jadvalni ko'rishimiz mumkin:

O'zbekiston, AQSH va Germaniya saylov tizimi to'g'risida taqqoslama jadval

Kriteriyalar	O'zbekiston	AQSH	Germaniya
Konstitutsiyaviy asos	Konstitutsiyada ko'p partiyaviylik va erkin saylovlar kafolatlanadi(2023)	Konstitutsiya va shtat qonunlari bilan tartibga solinadi	Asosiy qonun(Grundgesetz) bilan belgilanadi
Ovoz berish usuli	Qog'oz va elektrion variantlar aralash(asosan qog'oz)	Asosan qog'oz orqali, ba'zi shtatlarda electron variantlar sinovdan o'tkazilmoqda	Qog'oz orqali, pochta orqali ovoz berish imkoniyati mavjud
Saylovchilar ishtiroki(oxirgisi)	~70%	~66%	~76%
Saylov	Markaziy Saylov	Har bir shtatni	Federal va mahalliy

³ O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi

komissiyasi tuzilishi	Komissiyasi	mustaqil saylov komissiyalari mavjud(bipartisan tizimi)	mustaqil komissiyalar(partiyalar nazorati ostida)
--------------------------	-------------	--	---

Xalqaro ekspertlar saylash huquqiga ega bo'lgan va harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarni qo'rqitilishi mumkinligi nuqtai nazaridan juda zaif elektorat segmenti deb hisoblaydi.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng saylov jarayonlari takomillashtirildi, xususan mustaqillikdan so'ng shu kungacha 7 marta prezidentlik saylovi o'tkazilgan. Ilk bor prezidentlik saylovi 1991-yilda o'tkazilgan va aholi ishtiroki o'ta yuqoriligi bilan yodda qolgan. Jami ro'yxatga olingan fuqarolarning 94,2% saylovda faol qatnashgan. Keyingi prezidentlik saylovi 2000-yili o'tkazilgan, unda 12 million 746 ming 903 kishi ro'yxatdan o'tgan va 12 million 123 ming 199 saylovchi ishtirok etgan. Bu esa ro'yxatdan o'tgan saylovchilarning umumiy miqdorining 95,10% qatnashganini ko'rsatadi.⁴

2007-yil 16 million 297 ming 400 nafar saylovchi ro'yxatga olingan, shundan 14 million 765 ming 444 nafar yoki 90,6 foiz ovoz berishda ishtirok etgan. Bu ko'rsatkichlardan sezish mumkinki O'zbekiston aholisi yurtboshi-prezidentni tayinlashga va siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmagan. Keyingi yillarda, xususan 2015, 2016, 2021 va 2023-yillarda ro'yxatga olingan saylovchilarning 80 foizidan ortig'i faol ishtirok etishgan.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim olimlar saylov tizimini yaratishga va uni yanada samarali bo'lishi va tartibga solishning miqdoriy yondashuvlariga alohida e'tibor qaratishadi. Bunda jarayonni shaffof, ochiq va oshkora tashkil etish uchun xorijiy tajriba metodlari, iqtisodiy ta'sir tahlillari va boshqa ko'rsatkichlari muhokama qilish e'tibor doirasida bo'ladi.⁵

Taraqqiy etgan demokratik huquqiy davlatlarda saylovlarning adolatli o'tishi har bir saylovchining ovoz berish jarayonida ishtirok etishini ta'minlash borasida yaratilgan shart-sharoitlarning saylovchi-fuqarolar uchun qulayligi, kengligi hamda huquqiy asosga ega ekani bilan belgilanadi. O'zbekiston milliy saylov qonunchiligida ham barcha saylovchilarga ovoz berish jarayonida to'sqinliksiz ishtirok etishini ta'minlash borasida muhim qoidalar belgilangan. Ulardan biri saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish huquqi institutidir. Qayd etish lozimki, saylovlarda muddatidan oldin ovoz berish tartibi ilg'or xorijiy davlatlarda,

⁴ Foto: O'zbekistonda o'tgan barcha prezidentlik saylovlari — Uzbekistan News | DARYO.UZ

⁵ Rayanov F.M. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, Jurist Publ., 2002.

xususan, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Finlyandiya, Norvegiya, Polsha, Ruminiya va boshqa ko'plab davlatlarda mavjud.

Bir qator ilg'or xorijiy davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasida ham muddatidan avval ovoz berish huquqi fuqarolarga taqdim etilgan. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 57-moddasiga muvofiq, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga egadir. Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi.

Fransiyalik va Germaniyalik Maurice Duverger ("Siyosiy partiyalar") va Arend Lijphart ("Demokratik rejimlar") kabi olimlar saylov tizimlari va ularning demokratiyaga ta'sirini tahlil qilishgan. Ularning fikricha, proporsional va ko'pchilik saylov tizimlari turli davlatlarda turli ta'sir ko'rsatadi. Arend Lijphart o'zining "Patterns of democracy" nomli kitobida demokratiyaga asoslangan davlat barpo etishning qanchalik dolzarbligi, saylovning ahamiyati haqida batafsil to'xtalgan. Aynan ushbu ilmiy qo'llanma Yale Universiteti tomonidan nashrdan chiqarilgan va bu universitet huquqiy fan modullarida bu qo'llanmadan keng foydalanishadi.

2022-yil 17-oktyabrda MDH davlatlari saylov organlari rahbarlarining maslahat kengashi tuzildi. Ushbu loyiha yuzasidan O'zbekiston Markaziy saylov komissiyasining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari saylov organlari rahbarlarining maslahat kengashini tuzish bo'yicha tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. "MDH doirasida maslahat organini tashkil etish tashabbusi MDHga a'zo davlatlar saylov organlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ilgari surildi", ⁶ - deyiladi xabarda. O'zbekistonda Markaziy saylov komissiyasi tajribasi va metodlari bir qator MDH davlatlari tomonidan maqullanib iliq qarshi olindi. Saylov komissiyasi a'zolari olimlari saylov tizimini oshkora va shaffof o'tkazishni keng muhokama qilishdi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Zamonaviy saylov tizimlari demokratik jamiyatlar uchun asos bo'lib, ularning ishlash samaradorligi qonuniyat, shaffoflik va ishonchlilik tamoyillariga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, saylov jarayonining muvaffaqiyati bir qator omillarga, jumladan saylov qonunchiligining aniqligi, saylov mexanizmlarining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanganligi va fuqarolarning saylov madaniyatiga ega bo'lishiga bog'liq (Norris, 2017).

Demak, demokratiyaga asoslangan rivojlangan davlat barpo etishda uni boshqarish muhim va bunday vazifani ishonchli vakolatli organlarga topshirish muhim jarayon.

⁶ [MDH davlatlari saylov organlari rahbarlarining maslahat kengashi tuzildi - 17.10.2022, Sputnik O'zbekiston](#)

Saylovlarning halol va adolatli bo'lishi uchun shaffoflik va mustaqil nazorat mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Dahl (1989) o'zining "Demokratiya va uning tanqidchilari" asarida ta'kidlaganidek, demokratik saylovlar fuqarolarning ovoz berish huquqini himoya qilishi va saylov natijalariga ishonch hosil qilishi kerak. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, saylov komissiyalarining mustaqilligi va saylov jarayonining ochiqligi saylovlarning ishonchliligini oshiradi (Birch, 2011).

O'zbekistonda saylov tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, shu jumladan raqamlashtirish va elektron ovoz berish tizimlarini joriy etish, saylovlarning shaffofligini oshirishga yordam beradi (Xabibullayev, 2022).

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi saylov jarayonlarini yanada ishonchli va qulay qilmoqda. Masalan, Estoniya elektron ovoz berish tizimini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlardan biri bo'lib, bu usul saylov ishtirokini oshirishga yordam bergan (Alvarez et al., 2009). Biroq, ba'zi tadqiqotchilar kiberxavfsizlik tahdidlari tufayli elektron saylovlarning ishonchliligi haqida shubha bildiradilar (Krimmer et al., 2017).

Saylovlarda ishtirok darajasi demokratiyaning salohiyatini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Franklin (2004) ta'kidlashicha, saylov ishtirokining pastligi siyosiy beparvolik yoki saylov tizimiga ishonchsizlik natijasida yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, saylov oldi targ'ibotlari va fuqarolarni saylov ahamiyati haqida o'qitish samarador saylovlar uchun muhimdir.

Xulosa

Saylov tizimi demokratik jamiyatning asosiy institutlaridan biri bo'lib, uning samaradorligini mamlakatning siyosiy barqarorligi va fuqarolarning ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, halol va shaffof saylovlar o'tkazish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

Mustaqil saylov boshqaruvi - Lindberg (2006) ta'kidlashicha, mustaqil saylov komissiyalari saylovlarning halolligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu institutlarning mustaqilligi va professionalligi saylov jarayoniga ishonchni oshiradi.

Innovatsion texnologiyalarning ahamiyati - Goodman (2014) elektron ovoz berish tizimlarining afzalliklarini ta'kidlab, ularning saylov ishtirokini oshirish va jarayonni soddalashtirishdagi rolini alohida ta'vsiya qiladi. Biroq, Sussman (2020) bu texnologiyalarni joriy etishda kiberxavfsizlik tahdidlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Fuqarolarning ishtirok darajasi - Blais (2006) o'z tadqiqotlarida saylov ishtirokining demokratik jamiyatlar uchun ahamiyatini ta'kidlab, ishtirokni oshirish uchun strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston kontekstida, Abdullayev (2023) mamlakatimizda amalga oshirilayotgan saylov islohotlarini chuqur tahlil qilib, ularning xalqaro standartlarga moslashtirilishi jarayonidagi yutuqlar va qiyinchiliklarni alohida ta'kidlaydi.

Demak, samarali saylov tizimini shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarni inobatga olish muhim:

- Saylov qonunchiligini takomillashtirish
- Mustaqil monitoring mexanizmlarini joriy etish
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
- Fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish

Kelajakda saylov tizimlarini takomillashtirish bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish va xalqaro tajribalarni o'rganish demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Alvarez, R. M., Hall, T. E., & Hyde, S. D. (2009). Election Fraud: Detecting and Detering Electoral Manipulation. Brookings Institution Press.
2. Birch, S. (2011). Electoral Malpractice. Oxford University Press.
3. Dahl, R. A. (1989). Democracy and Its Critics. Yale University Press.
4. Franklin, M. N. (2004). Voter Turnout and the Dynamics of Electoral Competition in Established Democracies Since 1945. Cambridge University Press.
5. Krimmer, R., et al. (2017). The Development of Remote E-Voting Around the World: A Review of Roads Taken and Not Taken.
6. Norris, P. (2017). Why Electoral Integrity Matters. Cambridge University Press.
7. Xabibullayev, R. (2022). O'zbekistonda saylov islohotlari: yangi bosqich. "Demokratik institutlar" jurnali.
8. Lindberg, S. I. (2006). Democracy and Elections in Africa. Johns Hopkins University Press.
9. Goodman, N. (2014). Internet Voting: The Great Debate. Election Law Journal.
10. Sussman, E. (2020). Cybersecurity in Elections: Models of Interagency Collaboration. Harvard National Security Journal.

11. Blais, A. (2006). What Affects Voter Turnout? Annual Review of Political Science.
12. Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida
13. [Patterns of Democracy](#)